

TARJIMA TURLARI, YOZMA VA OG`ZAKI TARJIMA TASNIFI

O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti, 2401- guruh talabasi

Jo`raqo`ziyeva Zumradxon Qaxramonjon qizi

Ilmiy rahbar. Xolboboyeva A.Sh.

f.f.f.d(Phd)

O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti

ingliz tili amaliy tarjima fafedrasi dotsenti

azizakholboboeva1611@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima turlari va ularning mohiyati, og`zaki va yozma tarjimalar tasnifi tahlil qilindi.

Kalit so`zlar : tarjima, og`zaki, yozma, visual, ketma-ket, sinxron, shivirlab, qaydlar.

Annotation. This article analyzes the types of translation and their essence, including the classification of oral and written translations.

Keywords: translation, oral, written, visual, consecutive, simultaneous, whispered, notes.

Аннотация. В данной статье анализируются виды перевода и их сущность, а также классификация устных и письменных переводов.

Ключевые слова: перевод, устный, письменный, визуальный, последовательный, синхронный, шепотом, заметки.

Aksariyat tilshunos va tarjimashunos olimlar tarjimani tasniflashda bir qancha mezonlar mavjud ekanligini ta'kidlashadi va ular quyidagilar:

1) Tarjimani aynan kim amalga oshirishga bog'liq. Bugungi kunda tarjima inson yoki kompyuter tomonidan qilinishi mumkin;

2) Nutq shakli: yozma tarjima, yozma matnning og'zaki tarjimasi yoki og'zaki tarjima kabi farqlanadi. Bu mezon, shuningdek, subtitrlash ya'ni ekranda chiqib turgan matnni ko'rib tarjima qilish, dubblyaj qilish yoki asl nutq o'rniga ovozli tarjimani imkon

qadar o'z vaqtida ovozlashtirishdan tortib lab qimirlashlariga qadar moslashtirish demakdir;

3) Asliyat matn mohiyatini idrok etish. Bunda tarjimon asliyat matnni ko'rishi yoki eshitishi orqali tarjima qiladi;

4) Asliyat matnni idrok etish va tarjima qilish o'rtasidagi vaqt oralig'i: ketma-ket va sinxron tarjima qilish;

5) Tarjima jarayonida tillarning soniga qarab bir tomonlama (faqat inglizchadan o'zbekchaga) yoki ikki tomonlama (inglizchadan o'zbekchaga va o'zbekchadan inglizchaga) tarjima;

6) Tarjimaning yo'nalishi: o'z ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima;

7) Og'zaki tarjima usullariga ko'ra: eslatmalar orqali yoki gapma-gap og'zaki tarjima;

8) Asliyat matnning uslubi yoki janriga ko'ra: badiiy adabiyot yoki rasmiy uslubdagi matnlarni tarjima qilish.

Tarjima turlarini umumlashgan holda shakli va mazmuniga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiq. Ma'lumki, har qanday til og'zaki va yozma nutqda ifodalanadi. Tarjima, shakliga ko'ra, yozma tarjima va og'zaki tarjimaga bo'linadi. Rus tilidagi "perevod", o'zbek tilidagi "tarjima" so'zi ingliz tilida ikki xil talqin qilinadi: yozma tarjima (translation) va (interpretation) og'zaki tarjima. Ular yozma matn yoki og'zaki nutqdan kim va qanday tarjima qilishga qarab farqlanadi. Biz yozma tarjima (translation) va og'zaki tarjimani (interpretation) bir-biridan farqlagan holda tarjima amaliyotlarini olib borishimiz va tarjimon tayyorlash jarayonida bu jihatga jiddiy e'tibor qaratishimiz zarur. Yozma tarjimada asliyat matnining barcha detallari imkon qadar tarjima tiliga olib o'tilishi kerak, og'zaki tarjimada esa so'zlovchining asosiy nutqini buyurtmachiga yetkazib berishga intilishimiz lozim.

Bu ikki tushunchaning bir-biridan farqini tarjima va tarjimonlar bo'yicha xalqaro tashkilotlar nomlari va ularning vazifalarida ham ko'rishimiz mumkin. Dunyo bo'ylab yozma tarjimonlarni bir-biriga bog'lab turuvchi tashkilot Xalqaro tarjimonlar federatsiyasi, ya'ni F.I.T. (Fédération Internationale des Traducteurs) yoki I.F.T (the International Federation of Translators) deb yuritsa, og'zaki tarjimonlar uchun esa Og'zaki tarjimonlar xalqaro assotsiatsiyasi A.I.I.C. (Association Internationale des

Interprètes de Conférence), yoki I.A.C.I (the International Association of Conference Interpreters) mavjud.

Yozma tarjima deganda, har qanday matn (yozma yoki og'zaki material)ning yozma shakldagi tarjimasi tushuniladi. Og'zaki tarjima esa, har qanday material (yozma yoki og'zaki matn asar)ning og'zaki shaklda o'zgartirilishidir. Manba tili va tarjima tili materialining qanday shaklda o'zgartirilishiga qarab, tarjimani bir necha turlarga ajratish mumkin. Bunda tarjimaga manba tili va tarjima tili materiallarining mohiyati, turi, shakli asos qilib olinadi. Manba tili va tarjima tilining o'rniqa qarab, tarjimani keyingi bosqichda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Og'zakidan og'zakiga – og'zaki eshitilgan axborotning og'zaki tarjimasi;
- Yozmadan yozmaga – yozma matnning yozma tarjimasi;
- Yozmadan og'zakiga – yozma matnning og'zaki tarjimasi;
- Og'zakidan yozma – og'zaki eshitilgan matnning yozma tarjimasi.

Bugungi kunda tarjimaning boshqa turlari bilan bir qatorda, og'zaki tarjimaning ketma-ket va sinxron turlari katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunga sabab, jahonda ko'plab diplomatik, savdo-sotiq, madaniy va ilmiy-texnikaviy aloqalarga katta ehtiyoj borligidirdir.

Og'zaki tarjimada tarjimon aytilayotgan nutq mazmunini tez uqib olish, oldindan tayyorlanib, tez tahlil qilish ko'nikmasini va to'xtamay tarjima qilish usullarini ishlab chiqgan bo'lishi kerak. Bu jarayonda tarjimon tarjima qilayotgan matnni tuzatish yoki qayta tahlil qilish imkoniyatiga ega emas. Og'zaki tarjimaning xarakterni xususiyati shundaki, tarjimon matnni, avvalo, akustik shaklda, ya'ni eshitganlarini tarjima qiladi. Og'zaki tarjimaning ikkinchi asosiy xarakterni xususiyati uning nutqni eshitib, keyin amalga oshirilishidir. Ayrim hollarda shunday vaziyatlar bo'lib qoladiki, tarjimon notiq gapning ega va kesimini aytishini kutib, keyin tarjima qilishga kirishadi. Tarjima jarayonidagi bunday muammo tillarning tipologik jihatdan turli guruhlarga mansubligi sababli ro'y beradi.

Og'zaki dan og'zaki tarjima, o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi:

1. sinxron tarjima;

2. ketma-ket tarjima;
3. shivirlab tarjima qilish;
4. vizual tarjima.

Sinxron tarjima. Og'zaki tarjimaning bir turi bo'lgan sinxron tarjimada tarjimon so'zlovchining nutqini eshitib, shu zahotiyoy qarabda qilishi kerak. Odatda, sinxron tarjima texnik vositalarni qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda so'zlovchining nutqi maxsus kabinada o'tirgan tarjimonga «eshitgichlar» orqali yetkaziladi va tarjimonning mikrofonga uzatgan tarjimasini tinglovchilarga yetkaziladi. Sinxron tarjima jarayonida tarjimon juda katta ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarga duch keladi, chunki sinxron tarjima o'za murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimondan so'zlovchi nutqi tezligidan orqada qolmasdan tarjima qilishi zarur. Shuning uchun sinxron tarjimonlar 20-30 daqiqa ishlab, keyin boshqa tarjimonlar bilan o'rinni almashadi.

Sinxron tarjima imkoniyatlarining chegara-langanligi:

1. notiq bilan bir vaqtida nutqini teng tarjima qilish;
2. vaqtning ziqligi (pauzalar yo'q);
3. puxta, atroflicha o'ylab, tarjima qilish imkoniyatining yo'qligi;
4. qayta so'rash, aniqlashtirish imkoniyati yo'qligi;
5. ham eshitib ulgurish, ham tarjima qilish, ham vaziyatni hushyor baholash kabi mas'uliyatlar.

Ketma-ket tarjima

Ketma-ket tarjimada tarjimon so'zlovchi nutqining biror-bir qismini nutq tugaganidan so'ng tarjima qiladi. Tarjimani bu turida tarjimon so'zlovchi nutqidagi asosiy bo'g'indan ilg'ab olishishi, agar nutq uzoqroq bo'lsa, uning eng muhim joylarini yozib borishi kerak. Bu esa tarjimonga eshitganini esga olishni ta'minlaydi. Ketma-ket tarjima tarjimonning fikrlash va esda saqlash qobiliyatiga bog'liq. Og'zaki tarjimaning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, yozma matnni og'zaki tarjima qilishda matn mazmunini tez uqib olish, tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lisdirdi.

Ketma-ket tarjimaning sinxron tarjimadan farqli ravishdagi imkoniyatlari:

1. vaqtning etarliligi;
2. pauza (oralik vaqt)ning berilishi;

3. o'ylab, puxta tarjima berish imkoniyatining mavjudligi;
4. lozim bo'lsa, aniqlashtirish imkoniyatiga egaligi;
5. eslatmalarning yozib olinishi.

Ketma-ket tarjimada eslatmalar yozib olish yoki tez yozish tizimi so'zlovchining nutqini so'zma-so'z yozib olishni anglatmaydi. U axborotni birma-bir konseptual ifodalashga yordam beradi va ma'ruzachining asosiy g'oyasini ajratib olishga yordam beradi. Yozib olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- faqat tayanch so'zlar va asosiy e'tiborni jalg etadigan ma'lumotlar (atoqli nomlar, statistika va boshqalar);
- so'zlar qisqartiriladi;
- maxsus belgilardan foydalilanadi;
- sintaktik struktura vertikal holatga o'tkaziladi, ya'ni jumlaning bir xil qismlari bir-birining ostiga yoziladi.

Shivirlab**tarjima****qilish**

Sinxron tarjimaning yana bir turi bor-ki, bunda tarjimon receptor yonida turib yoki o'tirib, past ovozda (shivirlab) notiqning nutqini tarjima qiladi. Bu holatda receptor tarjimani bevosita yoki eshitgich orqali qabul qiladi. Og'zaki tarjima tarixida xalqaro konferensiya va anjumanlarda dastlab og'zaki tarjimalar aynan shivirlash orqali tarjima qilingan. Bunda og'zaki tarjimon tinglovchining yonida yoki orqasida o'tirib past ovozda nutqning asosiy mohiyatini tushuntirib beradi. Shivirlab tarjima qilishda tarjimon faqat bir kishiga axborotni yetkazadi. Sinxron va ketma-ket tarjimada barcha anjuman ishtirokchilari tarjimonning tarjima nutqini eshitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Vizual**tarjima**

Ba'zi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin yozma ravishda rejalashtiradigan matnni ko'rib chiqadi. Vizual tarjima qilish bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga o'girib o'qishga aytildi. Og'zaki va yoziladigan axborotni ko'rish jarayoni qamrab olinganligi sababli ko'rib tarjima qilishni yozma tarjimaning maxsus turi, shuningdek, og'zaki tarjimaning o'ziga xos varianti sifatida qabul qilish mumkin. Vizual tarjima qilish ehtiyyotkorlik bilan bajarilishi kerak. Vizual tarjima qilish sinxron tarjimaga yaqinroqdir. Vizual tarjima qilish shunday qurilki, ushbu bo'limda tarjimon matndagi texnik terminlarni ko'rib chiqish

va o'zi mutaxassis bo'lмаган соhadagi terminlarni tarjima qila olishga tayyorgarlik ko'rish imkoniyati bo'ladi. Qiyin so'zlarning talaffuzini ko'rib olish mumkin. Bundan tashqari vizual tarjima qilish qiyin matnlar mazmunini konferensiya boshlangunga qadar ko'rish imkonini beradi.

Tarjimani mazmuniy turlarga ajratishda tarjimashunoslar turlicha qarashlarni ilgari surganlarini ta'kidlab o'tish zarur. V. N. Komissarov o'zining tarjimaning quyidagi turlari haqida so'z yuritadi:

1. moslashtirilgan (soddalashtirilgan) tarjima;
2. muqobil tarjima;
3. antonomik tarjima;
4. hijjalab qilingan tarjima;
5. informativ tarjima;
6. badiiy tarjima;
7. yaqinlashtirilgan tarjima;
8. erkin tarjima;
9. qisqartirilgan tarjima;
10. aniq tarjima;
11. transformatsion tarjima;
12. xomaki tarjima;
13. ekvivalent tarjima;
14. qoralama tarjima.

G.M.Hoshimov esa tarjimalarni faqat ikki guruhgaga ajratadi:

1. badiiy tarjima;
2. nobadiiy tarjima.

R.K.Min'yar-Beloruchev tasnifiga ko'ra, quyidagi tarjima turlari mavjud:

1. yozma tarjima;
2. sinxron tarjima;
3. ketma-ket tarjima;
4. qog'ozdan tarjima.

Bu tasnifda ketma-ket tarjima, Min'yar-Beloruchev fikricha, to'rt xil bo'lishi mumkin:

1. bir tomonlama tarjima;
2. ikki tomonlama tarjima;
3. hatbosidan-frazaga tarjima;
4. qaydlar orqali tarjima.

Yozma tarjima odatda matnning uslub jihatidan turiga bo'linadi va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: rasmiy-idoraviy, badiiy, publisistik, ilmiy va so'zlashuv. Ular ham o'z navbatida har bir uslubdagi matnlarning kichik turlariga, ya'ni sohaviy turlariga bo'linishi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar :

1. Rojo, A. Step by Step: A Course in Contrastive Linguistics and Translation. Peter Lang. 2009. – 418 p.
2. Susan Bassnet. Translation studies. 3rd edition. – London and New York. Taylor & Francis e-Library, 2005. – 176 p.
3. Faafurov I., Muminov O., Kambarov N. Tarjima nazariyası. Darслик. – Тошкент, 2012. –216 б.
4. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М., 2004. – 424 с.